ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021
ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-1475-1480

MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING TAMOYILLARI

Munisa Mirafzalovna Topilova
Toshkent shahar Chilonzor tumani Maktabgacha ta’lim bo’limi

ABSTRACT

O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etish jarayoni ketmoqda. Ushbu jarayon samarasi ko‘p jihatdan madaniy saviyasi baland barkamol inson shaxsini shakllantirishga bog‘liq. Zotan, ana shunday shaxsgina ijtimoiy taraqqiyot mo‘ljallarini va millat manfaatlarini chuqur anglab etadi, Vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qiladi. Shuning uchun ham, ma‘naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat", - degan edi1 . Barkamol inson shaxsi ma‘naviy qiyofasida ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, bolalar, tabiat, tamoyil.